

JINOYATNI QASDDAN HISOBOTDAN YASHIRISH

Yusupova Rayxon Abdullayevna

O'rtachirchiq Tumani Prokurorining Yordamchisi

TEL: +99898-000-41-37

Annotatsiya: Ushbu tezisda jinoyatni qasddan hisobotlardan yashirish borasida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonda bu masala jinoiy huquqni takomillashtirish, adolatni ta'minlash va ijtimoiy xavfsizlikni oshirish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Jinoiyatni yashirish yoki soxtalashtirish nafaqat jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni zaiflashtiradi, balki jamiyatda adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: jinoiy huquq, jinoyatni yashirish, xavfsizlikni oshirish, takomillashtirish, adolatni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining **Jinoiy kodeksi** va boshqa huquqiy normativ hujjatlarda jinoyatlarni yashirishga qarshi qat'iy jazolar belgilangan. Jinoyatni yashirish, jinoyatni sodir etgan shaxsni yoki jinoyatga guvoh bo'lganlarni himoya qilish yoki jinoatni sodir etgan odamni aniqlashga to'sqinlik qilish kabi harakatlar **Jinoiy kodeksning** 26-moddasida «Jinoiy javobgarlikni yashirish» deb ko'rsatilgan. Bu boradagi javobgarlik quyidagicha belgilangan:

- **Jinoyatni yashirish:** 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish.
- **Jinoiy harakatni yashirishga aralashgan shaxs:** Jinoiy harakatni yashirishga yordam bergan yoki uni himoya qilgan shaxslar ham javobgarlikka tortiladi.

20.07.2018 yildagi «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi **O'RQ-485**-son Qonunni tahlil qilishda davom etamiz.

Eslatib o'tamiz, **241-1-modda** (jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish) Jinoyat kodeksiga 22.09.2008 yilda kiritilgan. Shu kungacha unda og'irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilmagan va bitta qismdan iborat bo'lgan.



Jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxsning og'irlashtiruvchi holatlarsiz jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishi quyidagicha jazolanadi:

<i>Ilgari</i>	<i>Hozir</i>
EKIHning 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima	jazo turi JKning 241-1-moddasidan chiqarib tashlangan
3 yilgacha axloq tuzatish ishlari	2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari (<i>mazkur jazo turi uchun quyi chegara joriy etildi</i>)
2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash	muayyan huquqdan mahrum qilib, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash (<i>mazkur jazo turi uchun quyi chegara oshirildi, shuningdek qo'shimcha jazo joriy etildi</i>)
5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish	muayyan huquqdan mahrum qilib, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish (<i>mazkur jazo turi uchun quyi chegara oshirildi, shuningdek qo'shimcha jazo joriy etildi</i>)

O'sha qilmish:

- takroran sodir etilgan bo'lsa (ya'ni bir necha marta, hukm qilingandan keyin retsivist tomonidan sodir etilgani bilan chalkashtirmang);
- bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa (bu holda oldindan til biriktirishi majburiy hisoblanmaydi);
- og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa (og'ir oqibatlarining batafsil ro'yxati mavjud emas, sud tomonidan ishning holatini hisobga olib baholanadi), endi 5 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.X. Rustambaev. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. Т., «O'qituvchi», 2004.
2. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Т., «Yangi asr avlodi», 2005.
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/jinoyatlarni_hisobga_olishdan_yashirganlik_uc_hun_javobgarlik_kuchaytirildi